

**SHVETSIYA VA FINLANDIYA IQTISODIYOTIDA KICHIK VA
O'RTA BIZNESNING FAOLIYATI TAHLILI VA MAMLAKAT
IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti

Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi magistratura talabasi

Baxtiyorova Maftuna Baxrom qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shvetsiya va Finlandiya davlatlarida kichik va o'rta biznes sektorining iqtisodiyotdagi roli va faoliyati tahlil qilingan. Kichik va o'rta korxonalar bu davlatlarda ish o'rnlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tadbirkorlik sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasiga qo'shgan hissasi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kichik va o'rta biznes, Shvetsiya, Finlandiya, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, davlat qo'llab-quvvatlashi, innovatsiya, kichik va o'rta biznes siyosati, Yevropa Ittifoqi tajribasi.

**АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА
В ЭКОНОМИКАХ ШВЕЦИИ И ФИНЛЯНДИИ И ИХ РОЛЬ В
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.**

Аннотация. В данной статье проанализирована роль и деятельность сектора малого и среднего бизнеса в экономиках Швеции и Финляндии. Малые и средние предприятия в этих странах являются важным фактором создания рабочих мест, внедрения инноваций и развития региональной экономики. В статье рассмотрены доля предпринимательского сектора в валовом внутреннем продукте, вклад в уровень занятости, а также механизмы государственной поддержки на основе официальной статистики.



Ключевые слова: малый и средний бизнес, Швеция, Финляндия, экономическое развитие, занятость, государственная поддержка, инновации, политика малого и среднего бизнеса, опыт Европейского Союза.

ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES IN THE ECONOMIES OF SWEDEN AND FINLAND AND THEIR ROLE IN THE NATIONAL ECONOMY

Abstract. This article analyses the role and activities of the small and medium-sized enterprise (SME) sector in the economies of Sweden and Finland. SMEs in these countries are an important factor in job creation, innovation implementation, and regional economic development. The article examines the share of the entrepreneurial sector in the gross domestic product, its contribution to employment levels, as well as state support mechanisms based on official statistical data.

Keywords: small and medium-sized enterprises, Sweden, Finland, economic development, employment, state support, innovation, SME policy, European Union experience.

Kichik va o'rta biznes iqtisodiy tizimning muhim komponenti ekanligi ma'lum. Ushbu turdag'i biznes mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi, chunki u ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rnlari yaratish, raqobatni kuchaytirish hamda innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kichik va o'rta bizneslar shuningdek, yirik korxonalarga nisbatan bir qator afzalliklar va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kichik va o'rta biznes vakillari asosan kichik hajmli ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo faoliyati bilan shug'ullanib, ko'plab yangi ish o'rnlarini yaratadi hamda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, xususan Shvetsiya va Finlandiyada kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash tizimlari ilg'or yondashuvlarga asoslangan. Ushbu davlatlarda kichik va o'rta bizneslarning o'sishini ta'minlash



uchun turli hukumat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan va o'ziga xos strategiyalar ishlab chiqilgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, jumladan Shvetsiya va Finlandiya, innovatsion startaplar, raqamli texnologiyalar va eksportni qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda yuqori natijalarga erishgan. Masalan, Shvetsiyadagi Almi (Swedish Agency for Economic and Regional Growth) va Finlandiyadagi Business Finland tashkilotlari kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshiradi. Shvetsiyada kichik va o'rta bizneslarning iqtisodiyotdagi ulushi 50% dan oshib, ushbu sektor hukumat uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.


Shvetsiya iqtisodiyoti zamonaviy raqamli transformatsiya va innovatsion taraqqiyot jarayonlarida yetakchilik qilayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakat iqtisodiy modeli esa yuqori darajadagi raqamlashtirish tizimiga, ilm-fan asosidagi rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslanadi. Jumladan, kichik va o'rta biznes sektori Shvetsiya iqtisodiyotining eng muhim bo'lган tarkibiy qismini tashkil etib, u nafaqat ish o'rnlari yaratishda, balki innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda ham yetaricha ahamiyatga ega. 2020–2025 yillar oralig'ida Shvetsiyadagi kichik va o'rta biznes subyektlari raqamli texnologiyalarni faol tarzda joriy etish orqali iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga erishdi. Ayniqsa, sun'iy intellekt (AI), katta til modellari (LLM), avtomatlashtirilgan tizimlar va bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanish ulushi sezilarli darajada o'sdi. Masalan, 2024 yilga kelib, 10 va undan ortiq xodimga ega kompaniyalarning 25,2 foizi sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanayotganini haqida ma'lumot bergen bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda ikki baravar yuqori hisoblanadi¹.

Shvetsiyada kichik va o'rta biznes korxonalari xizmatlar sektorida ustunlikka ega bo'lган holda, mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini yaratmoqda. 2023 yilda ushbu korxonalar xizmatlar sohasidagi umumiyl ishlab chiqarish hajmining 65,2 foizini tashkil etdi. So'nggi 50 yil ichida Shvetsiya iqtisodiyoti barqaror o'sish yo'lini bosib o'tdi. Garchi XX asrning so'nggi yigirma yilligida o'sish sur'atlari pasaygan bo'lsa-da, keyingi o'n yillikda



samaradorlikning ortishi hisobiga mamlakat Yevropa Ittifoqi davlatlari orasida iqtisodiy jihatdan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Hukumat tomonidan sanoatning tadqiqot va ishlanmalar sohasiga yo'naltirilgan sarmoyalarining oshirilishi, shuningdek, Yevropa Ittifoqidagi strategik ishtirokning kuchaytirilishi Shvetsiya iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini mustahkamladi².

Shvetsiya- YaIM ning real tarzda o'sishi³



Yuqoridagi ma'lumot asosida shuni aytish mumkinki, 2022-yilda Shvetsiyada real yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi bo'yicha aksar prognozlar 2.4% dan 2.9% gacha bo'lган oraliqda baholangan. Bu ko'rsatkichlar iste'mol va investitsiyalarning kamayishi tufayli avvalgi prognozlar — 3.1% dan 3.5% gacha — ga nisbatan pastroq darajada bo'ldi.

¹https://economy-finance.ec.europa.eu/economic-surveillance-eu-economies/sweden/economic-forecast-sweden_en

²Statistics Sweden (SCB) (2024). ICT Usage in Enterprises 2024. Retrieved from: <https://www.scb.se>

³Unlocking Europe's AI Potential (2024). Sweden Country Report: <https://www.unlockingeuropeaipotential2024.com/sweden>



2022-yilning to'rtinchi choragi va 2023-yilning birinchi choragida Shvetsiya iqtisodiyotida ketma-ket ikki marotaba kichik qisqarish kuzatildi. Shvetsiya iqtisodiyoti eksportga yo'naltirilgan bo'lib, umumiy eksportning qariyb 50 foizi Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga yo'naltirilgan. Ulardan 11 foizi Germaniyaga to'g'ri keladi. Shuning uchun, agar ushbu asosiy savdo sheriklari iqtisodiy retsessiyaga uchrasa, bu bevosita Shvetsiya iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2023-yilda esa Shvetsiyada real YaIMning o'sishi salbiy tus olishi kutilgan. Bu prognoz ichki va tashqi talabning pasayishi, qarz olish xarajatlarining ortishi, hamda energetika inqirozi kabi omillar bilan izohlanadi. Shuningdek, Rossiya–Ukraina urushi ham savdo va inflyatsiya kanallari orqali Shvetsiya iqtisodiyotiga bosim o'tkazmoqda. Iste'mol narxlarining o'sishi 2022-yilda ish haqi o'sish sur'atidan yuqori bo'lgani sababli, aholi real daromadlarining pasayishiga olib keldi. Bu holat esa, o'z navbatida, iste'molchilar xarid qobiliyati va umumiy sarf-harajatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, iqtisodiyotda quyidagi xavf omillari saqlanib qolmoqda:

- Markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining kutilganidan tezroq ko'tarilishi;
- Turar-joy ko'chmas mulki narxlarining keskin tushishi va potentsial ipoteka defoltlar;
- Mehnat xarajatlarining yuqoriligi;
- Yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining nisbatan balandligi;
- Aholi tarkibidagi noqulay demografik o'zgarishlar (masalan, qarib borayotgan aholi ulushi).

Umuman olganda, 2022–2023-yillar Shvetsiya iqtisodiyoti uchun noaniqliklar, tashqi iqtisodiy shoklar va ichki muammolar bilan belgilangan davr bo'ldi.

Shvetsiyada kichik va o'rta biznes sektori va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 2020–2023 yillar uchun



Yil	Real YaIM o'sishi %	Kichik va o'rta biznesda kredit o'sishi	Umumiy biznesda kredit o'sishi	Markaziy bank repo stavkasi %	Bankrotlik holatlari
2020	-	-	-	0.00	Pasayish
2021	-	5.0	7.0	0.00	Keskin kamayish
2022	2.6	-	-	0.75	Biroz ortish
2023	-0.2	-	-	3.75	Noaniq

2020 yilda kichik va o'rta korxonalar orasida bankrotlik holatlarining yetarli darajada pasayishi, 2021 yilda esa keskin kamayishi, 2022 yilda esa biroz ortishi, hukumat tomonidan pandemiya davrida ko'rilgan choralar samaradorligini va shu bilan birga pandemianing murakkab ta'sirini aks ettiradi. Bu holatlar kichik va o'rta biznes korxonalari sektorining tiklanish qobiliyati bilan birga, u duch kelayotgan dolzarb muammolarni ham ko'rsatadi.


So'nggi yillar Shvetsiyada pandemiyadan so'nggi tiklanish jarayoni, global iqtisodiy sharoitlar va kreditlash dinamikasi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni namoyish etdi. Bu esa aynan kichik va o'rta korxonalar sektorida barqaror o'sish va iqtisodiy muvozanatni ta'minlash uchun doimiy moslashuvchanlik, strategik rejalashtirish va institutsional qo'llab-quvvatlash zarurligini taqozo etmoqda.

Huddi shu kabi Finlandiya iqtisodiyoti ham mazkur tendentsiyalardan mustasno emas. Ushbu mamlakatda kichik va o'rta korxonalar mamlakatdagi barcha biznes subyektlarining 99 foizdan ortig'ini tashkil etib, yalpi ichki mahsulotning va umumiy bandlik darajasining salmoqli qismini ta'minlab kelmoqda. 2020–2025 yillar oralig'ida Finlandiyada kichik va o'rta biznes sektorida muhim o'zgarishlar kuzatildi: texnologik transformatsiya, raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, shuningdek, pandemiyaga javoban



ko'rilgan davlat yordami kabi omillar ushbu segmentning rivojlanish yo'naliшlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Finlandiya iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rni, roli va rivojlanish dinamikasi 2020–2025 yillar doirasida chuqr tahlilini ko'rib chiqamiz. Tadqiqot asosiy e'tiborni kichik va o'rta bizneslarning iqtisodiy faolligi, innovatsion salohiyati, mehnat bozori bilan o'zaro aloqalari, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati tahliliga qaratadi.

YaIM hajmining yillar davomida o'zgarishi⁴



⁴https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Key_business_statistics_in_the_non-financial_business_economy

Tahlil natijasida shuni aytish mumkinki, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli Finlandiya iqtisodiyoti 2,2% ga qisqargan bo'lsa, 2021 yilda esa iqtisodiy tiklanish kuzatilib, YaIM 2,9% ga o'sgan. 2022 yilda o'sish sur'ati 1,3% ni tashkil qilgan. 2023 yilda esa iqtisodiyot 1,2% ga qisqaganligini ko'rish mumkin. 2024 yilda iqtisodiy o'sish sur'ati -0,2% ga baholanmoqda, ammo 2025 yilda 2,0% lik o'sish prognozi qilinmoqda. Kichi va o'rta biznes sektori Finlandiya



iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat bandlikni ta'minlashda, balki qo'shilgan qiymat yaratishda ham sezilarli hissa qo'shadi.

Finlyandiyada qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliqchilikdan tashqari 2023- yil ma'lumotiga ko'ra 455.265 ta kompaniya mavjud. Ularda 1,46 million kishi ishlaydi va har bir kishi foydalanadigan xizmatlarni moliyalashtirish uchun foydalilaniladigan soliqlarni to'laydi. Korxonalarning 95 foizida 10 dan kam odam ishlaydi.

Finlyandiyadagi kompaniyalarning umumiyligi aylanmasi 541 milliard yevroning yarmidan ko'pini (54,1%) kichik va o'rta korxonalar tashkil qiladi va ularning YaIMdagi ulushi taxminan 40 foizni tashkil qiladi.

Shvetsiya va Finlandiya kichik va o'rta bizneslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali katta yutuqlarga erishgan. Spotify, Klarna, Supercell va Rovio Entertainment kabi kompaniyalar davlat dasturlari va moliyaviy yordam tufayli o'z faoliyatini kengaytirib, global bozorlarda muvaffaqiyat qozongan. Shvetsiya va Finlandiya hukumatlari tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, grantlar, soliq imtiyozlari va innovatsiya dasturlari kichik bizneslarning o'sishiga yordam beradi. Shvetsiya va Finlandiya kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash uchun turli moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqqan, jumladan grantlar, kreditlar va soliq imtiyozlari kabi dasturlarni o'z ichiga oladi. Finlandiyaning startaplar uchun ajratilgan subsidiyalari, grantlari va soliq imtiyozlari kichik bizneslarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham shunday moliyaviy mexanizmlarni joriy etish zarur bo'lib, bu kichik va o'rta bizneslarning o'sishini rag'batlantiradi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion moliyaviy dasturlar O'zbekistonga kichik biznesni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etishda yordam berishi mumkin. O'zbekistonda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy va texnologik yordamni yaxshilash uchun huquqiy tizimni mustahkamlash, innovatsion inkubatorlar yaratish, investitsiyalarni jalgilish va yangi bozorlarni ochish zarur.



List of used literature.

1. Sayfullayev, H.G. (2025). Kichik va o'rtalig'iz biznesni moliyalashtirishda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari. Editions, 4(1), 366–369.
2. Ruziyeva, D.I. (2023). Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(10), 471–480.
3. Leydesdorff, L., & Strand,(2011). *The Swedish System of Innovation: Regional Synergies in a Knowledge-Based Economy*. Journal of Technology Transfer, 36(2), 134–149. <https://doi.org/10.1007/s10961-010-9152-7>
4. Tereshchenko, E., Salmela, E., & Happonen, A. (2024). Emerging best strategies and capabilities for university-industry cooperation: Lessons from Finland. Technology Innovation Management Review, 14(2), 34–42. <https://timreview.ca/article/XXX>
5. Commission, E. Entrepreneurship and Small and Medium-Sized Enterprises (SMEs). Available online: https://ec.europa.eu/growth/smes_en (accessed in August 2019).
6. European Commission. Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European Economic and Social Committee and the Committee of the Regions; In COM 573 final; European Commission.
7. Mesropyan V. Digital platforms - a new market power. Moscow. 2018. - URL: <https://www.econ.msu.ru/sys/raw>.
8. Polyanin A. V., Soboleva Yu. P., Tarnovsky V. V. Digitalization of small and medium business processes. 2020. No. 4. S. 80-96.
9. Составлено автором на основании данных The Digital Economy and Society Index (DESI) [Electronic resource] // European Commission. – Mode of Access:
<https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/desi>.



List of used websites

1. https://economy-finance.ec.europa.eu/economic-surveillance-eu-economies/sweden/economic-forecast-sweden_en
2. Statistics Sweden (SCB) (2024). ICT Usage in Enterprises 2024. Retrieved from: <https://www.scb.se>
3. Unlocking Europe's AI Potential (2024). Sweden Country Report: <https://www.unlockingeuropeaipotential2024.com/sweden>
4. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Key_business_statistics_in_the_non-financial_business_economy